


# MUHANDISLIK

## & IQTISODIYOT

*ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal*

**2026-YIL**  
**IYUN/6-SON, III-QISM**



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google Scholar

ISSN INTERNATIONAL STANDARD SERIAL NUMBER INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



**ISSN: 3060-463X**



# **muhandislik** **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyun.

## **Bosh muharrir:**

**Zokirova Nodira Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

## **Bosh muharrir o'rinbosari:**

**Shakarov Zafar G'afarovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

## **Tahrir hay'ati:**

**Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich**, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Sharipov Kongratbay Avezimbetovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shaumarov Said Sanatovich**, texnika fanlari doktori, professor

**Turayev Bahodir Xatamovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Allayeva Gulchexra Jalgasovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Arabov Nurali Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Xamrayeva Sayyora Nasimovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bobonazarova Jamila Xolmurodovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Irmatova Aziza Baxromovna**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

**Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi**, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

**Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Amanov Otabek Amankulovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li**, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Qurbonov Samandar Pulatovich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tabayev Azamat Zaripbayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sxay Lana Aleksandrovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Ismoilova Gulnora Fayzullayevna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kasimova Nargiza Sabitdjanovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

**Kalanova Moxigul Baxritdinovna**, dotsent

**Ashurzoda Luiza Muxtarovna**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

**Bauyetdinov Majit Janizaqovich**, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

**Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li**, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Sultonov Shavkatjon Abdullayevich**, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

**Jo'raeva Malohat Muhammadovna**, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

**Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

**Kalonova Moxigul Baxritdinovna**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Norboyev Odil Abrayevich**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

**Nasimov Dilmurod Abdulloyevich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Mirzayev Kulmamat Djanzakovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Karimova Nilufar Sadirdin qizi**, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

**Pardaev Umidjon Uralovich**, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

**Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich**, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

# muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellashtirish
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK  
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

**Muassis:** "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

**Hamkorlarimiz:**

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



# MUNDARIJA

RIVOJLANAYOTGAN MAMLAKATLARDA ESG TAMOYILLARINI JORIY ETISHNING INSTITUTSIONAL TO'SIQLARI VA IQTISODIY OQIBATLARI .....	10
<b>I. R. Berdikulova</b>	
KIMYO SANOATINING IQTISODIYOTDA TUTGAN O'RNI VA TARMOQ KORXONALARIDA BOSHQARUV HISOBI .....	14
<b>Onorboev Sh.M.</b>	
A WEEKLY LOGISTICS-CONTROLLING SYSTEM FOR EXPORT SUPPLY CHAINS: CORRIDOR-LEVEL EVIDENCE FROM A TEXTILE EXPORTER.....	26
<b>Mukhammadiyahaminova Shakhzoda Sherzodovna</b>	
FOTOVOLTAIK-TROMBE DEVORI ASOSIDA HAVONI ISITISH, TOZALASH VA ELEKTR ENERGIYASI ISHLAB CHIQRISH JARAYONLARINI INTEGRATSIYALASHNING ILMIY-METODIK TAHLILI.....	36
<b>Rahimova Volida Karim qizi</b>	
XAVFSIZ HAYOT TARZINI SHAKLLANTIRISHDA TA'LIM VA TARBIYANING O'RNI: NAZARIY ASOSLAR VA AMALIY MODEL.....	42
<b>Nigmatjonov Sardor Abdumannovich</b>	
РАЗВИТИЕ МЕТОДОЛОГИИ ВНЕДРЕНИЯ ИННОВАЦИОННЫХ СТРАТЕГИЙ НА ПРЕДПРИЯТИЯХ ПИЩЕВОЙ ПРОМЫШЛЕННОСТИ: КОНЦЕПТУАЛЬНЫЙ ПОДХОД.....	49
<b>Дониёрова Зухрабону Алишер кизи</b>	
KAMBAG'AL OILALARNI TADBIRKORLIKKA JALB QILISHDA DAVLAT TOMONIDAN MOLIVAVIY QO'LLAB-QUVVATLASH VA BOSHQARISH (MENEJMENT) TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISH YO'LLARI...53	
<b>Bazarbaeva Asiya Shalkarbaevna</b>	
MOLIVAVIY INKLYUZIVLIK KONSEPSIYASI: BANK XIZMATLARINING KAMBAG'ALLIK DARAJASIGA TA'SIRINING NAZARIY ASOSLARI VA O'ZBEKISTON AMALIYOTI.....	58
<b>Niyozov Zuxur, Abdujalilov Shexroz, Zubaydulloyeva Damira</b>	
KORXONALARNI QAYTA TASHKIL ETISH JARAYONIDA ASOSIY VOSITALAR HISOBI VA BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH.....	61
<b>Davletov Ikrom Raximberganovich</b>	
ИОРДАНИЯ КАК ТУРИСТИЧЕСКИЙ ЦЕНТР БЛИЖНЕГО ВОСТОКА.....	67
<b>Салихова Алина Муратовна</b>	
QUYOSH ENERGIYASINI KONVERSIYALOVCHI OPTOELEKTRON GELIOTRANSFORMATORLARNING FIZIK-TEXNIK ASOSLARI .....	73
<b>Axunov Qambarali, Xomidov Abdullajon, Mashrapova Irodaxon</b>	
XXI ASRDA O'ZBEKISTONDA ELEKTR ENERGIYASINI TEJASHDAGI YANGI TEXNOLOGIYALAR.....	78
<b>Xamrakulova Xilola, Yusupova Sevaraxon</b>	
HUDUDIY IXTISOSLASHUVNING SHAKLLANISH OMILLARI VA MINTAQAVIY RIVOJLANISHDAGI AHAMIYATI .....	83
<b>Sodiqova Nigora</b>	
BANKLAR TRANSFORMATSIYASI JARAYONIDA AKTIVLAR SAMARADORLIGI TAHLILI.....	89
<b>Muminov Bekzod Polvonovich</b>	
ЧЕЛОВЕЧЕСКИЙ КАПИТАЛ КАК КЛЮЧЕВОЙ ФАКТОР УСТОЙЧИВОГО ЭКОНОМИЧЕСКОГО РАЗВИТИЯ УЗБЕКИСТАНА .....	95
<b>Садыков Авазбек Мадаминович, Цхай Лана Александровна</b>	
MILLIY KADRLAR ZAXIRASINI SHAKLLANTIRISHNING ILG'OR XORIJ TAJRIBASI.....	103
<b>G'aniyev Elyor Sobirjonovich</b>	
DIGITALIZATION OF INSOLVENCY PROCESSES: THE ROLE OF A UNIFIED ELECTRONIC PLATFORM IN ENSURING TRANSPARENCY AND ECONOMIC EFFICIENCY .....	110
<b>Damirjon Nurmatovich Soliyev</b>	



О ПРОЦЕССАХ ЦИФРОВИЗАЦИИ В УЗБЕКИСТАНЕ.....	116
<b>Джумаев Аскар Хайдарович</b>	
SOLIQ MA'MURCHILIGI METODOLOGIYASINING HUQUQIY, TASHKILY VA RAQAMLI BAZASINI SHAKLLANTIRISH BILAN BOG'LIQ MUAMMOLAR.....	121
<b>Shamsiev O'ktam Sayfitdinovich</b>	
KO'P XONADONLI UYLARDA KOMMUNAL XIZMATLAR KO'RSATISH SOHASINING INSTITUTSIONAL ASOSLARI VA HOZIRGI HOLATI TAHLILI.....	127
<b>Muminov Obidjon Odilovich</b>	
MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHİYATINI OSHIRISH YO'LLARI.....	135
<b>Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich</b>	



# MINTAQA VA UNING HUDUDLARIDA MEHNAT OMILI HISOBIGA SANOAT SALOHIYATINI OSHIRISH YO‘LLARI

**Urazaliyev Bekzod Sultanbayevich**

**Urganch davlat universiteti (UrDU) Stajyor o‘qituvchisi**

**ORCID: 0009-0001-0289-594X**

Email: [Dunyouz@mail.ru](mailto:Dunyouz@mail.ru)

**Annotatsiya:** Maqolada mintaqa iqtisodiyotiga va uning tarmoqlari rivojlanishiga mehnat omilining ta’siri ikki yo‘nalishda — qiymat va miqdor jihatdan baholangan. Miqdor jihatidan ish bilan bandlar soni va sanoat ishlab chiqarishidagi o‘zgarishlarning o‘zaro bog‘liqligi tadqiq qilingan. Natijalarga asoslanib, mintaqada sanoatni rivojlantirishga, uning salohiyatini kengaytirishga qaratilgan takliflar ishlab chiqildi.

**Kalit so‘zlar:** mehnat, ish haqi, ish bilan bandlik, sanoat, mintaqa, Xorazm.

**Аннотация:** В статье оценивается влияние фактора труда на региональную экономику и развитие ее секторов в двух направлениях: стоимостном и количественном. Изучается взаимосвязь между изменениями промышленного производства по занятости в количественном выражении. На основе полученных результатов разработаны предложения, направленные на развитие промышленности в регионе и расширение ее потенциала.

**Ключевые слова:** труд; заработная плата; занятость; промышленность; регион; Хорезм.

**Abstract:** This article assesses the impact of labor on the regional economy and the development of its sectors in two dimensions: value and quantity. The relationship between changes in industrial production and employment is examined in quantitative terms. Based on the findings, proposals are developed for developing industry in the region and expanding its potential.

**Key words:** labor; wages; employment; industry; region; Khorezm.

## KIRISH

Mintaqada sanoatni rivojlantirishning muhim omillaridan biri — mehnat hisoblanadi. Jumladan, mazkur omilning ta’sirini baholashda ko‘plab mezonlardan foydalanish mumkin. Bunda sanoatni rivojlantirishga mehnatning ta’sirini miqdor va qiymat nuqtayi nazaridan o‘rganamiz. Miqdoriy jihatdan tahlil etganimizda ishchi kuchining bandligi, uning soha va tarmoqlar kesimidagi holati, hududlar bo‘yicha taqsimlanishi kabilarni o‘rganamiz. Mehnatning qiymat bo‘yicha ta’sirida esa ish haqi va uning o‘zgarishi, shuningdek, uning natijaviy ko‘rsatkichlar o‘zgarishiga ta’sirini tahlil qilamiz.

## MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Mintaqa va uning hududlarida mehnat omili hisobiga sanoat salohiyatini oshirish masalalari iqtisodiyot fanining muhim tadqiqot yo‘nalishlaridan biri hisoblanadi. Ushbu muammoning nazariy va amaliy jihatlari xorijiy hamda mahalliy olimlar tomonidan keng o‘rganilgan.

Mehnat resurslarining iqtisodiy o‘shisdagi ahamiyati dastlab klassik iqtisodchilar tomonidan asoslab berilgan. Xususan, Adam Smit mehnat taqsimoti mehnat unumdorligini oshirishning asosiy omili ekanligini ta’kidlagan. David Rikardo esa mehnatni ishlab chiqarishning muhim omili sifatida baholab, uning iqtisodiy samaradorlikka ta’sirini ko‘rsatib bergan.

Neoklassik iqtisodiy maktab vakillari, jumladan, Robert Solou iqtisodiy o‘shish modellarida mehnat resurslari va kapitalning iqtisodiy rivojlanishga ta’sirini tadqiq etgan. Uning fikriga ko‘ra, mehnat resurslarining sifat jihatdan takomillashuvi va texnologik taraqqiyot iqtisodiy o‘shishning muhim manbalari hisoblanadi<sup>1</sup>.

O‘zbekistonlik iqtisodchi olimlardan Saidakhror G‘ulomov, Abdurahmon Vahobov, Qobuljon Abdurahmonov va boshqalarning ilmiy ishlarida mehnat bozori, inson kapitali, hududiy iqtisodiyot va sanoatni rivojlantirish

1 Robert Solow. *A Contribution to the Theory of Economic Growth*. // The Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70(1). – P. 65–94

masalalari tadqiq qilingan. Ularning ishlarida mehnat resurslarining sifatini oshirish, aholi bandligini ta'minlash va innovatsion iqtisodiyot sharoitida inson kapitalidan samarali foydalanish zarurligi asoslab berilgan.

Qobuljon Abdurahmonov o'z o'rganishlarida mehnat resurslari sifati va mehnat unumdorligini iqtisodiy o'sish hamda ishlab chiqarish samaradorligining muhim omili sifatida baholaydi<sup>2</sup>.

## TADQIQOT METODOLOGIYASI

Mintaqa va uning hududlarida mehnat omili hisobiga sanoat salohiyatini oshirishni tadqiq qilish uchun quyidagi ilmiy tadqiqot metodlaridan foydalanildi. Mehnat resurslari va sanoat ko'rsatkichlari o'rtasidagi bog'liqlikni aniqlash uchun statistik tahlil usulidan foydalanildi. Mehnat resurslarining hududiy joylashuvi va sanoat markazlari bilan bog'liqligi o'rganilganda iqtisodiy-geografik va sistemali tahlil usullaridan foydalanildi. Bu mehnat omilini sanoat salohiyatining boshqa omillari bilan birgalikda ko'rib chiqish imkonini berdi.

## TAHLIL VA NATIJALAR

Xorazm viloyatida 2010–2025-yillar davomida nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi dinamikasini tahlil qilish iqtisodiyotning sanoat tarmog'i holati, uning tarkibiy o'zgarishlari bilan mehnat bozori rivojlanishi o'rtasidagi bog'liqlikni ochib berish imkonini yaratdi.

Mintaqada o'rtacha oylik ish haqi 2010-yilda 322 ming so'mdan 2025-yilda 5 052 ming so'mgacha o'sgan. Bu o'zgarish 15 baravarlik o'sishga ega bo'lib, mazkur davrda iqtisodiy faollikning kengayishi, ish haqini indeksatsiya qilish siyosatining amalga oshirilishi hamda inflyatsion omillarning ta'sirini o'z ichiga oladi.

Tarmoqlar kesimida tahlil qilganimizda esa ish haqi darajasi bo'yicha farqlanishlar mavjudligini aniqladik. Xususan, yuqori daromadli sohalar qatoriga moliyaviy va sug'urta faoliyati, axborot va aloqa hamda tashish va saqlash kiradi. Ushbu tarmoqlarda ish haqining tez sur'atlarda o'sishi yuqori qo'shimcha qiymat yaratilishi, innovatsion texnologiyalardan foydalanish darajasi va bozor talabining yuqoriligi bilan izohlanadi. Shuni ham alohida ta'kidlaymizki, iqtisodiyotning real sektor tarmoqlariga nisbatan mazkur sohalar mablag'lar tez fursatda kapital qaytimiga ega bo'lishi, ya'ni uning foydalilik sikli qisqaligi bilan ham tavsiflanadi. Bu esa, boshqa tomondan, riskning ham pastligini anglatadi.

Shu bilan birga, sanoat, qurilish kabi iqtisodiyotning real sektor tarmoqlarida o'rtacha, lekin mintaqa o'rtacha ko'rsatkichlaridan yuqori holat qayd etildi. Shu o'rinda, sanoat tarmog'iga alohida to'xtalib o'tamiz. Sanoatda o'rtacha oylik ish haqi 2010-yilda 439 ming so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2025-yilga kelib 5 613 ming so'mga yetgan va 12,5 baravarga o'sgan. Bu davrda sanoat ishlab chiqarishining kengayishi, investitsiya faolligining oshishi va yangi quvvatlarning ishga tushirilishi muhim sabab bo'lgan. Shunday bo'lsa-da, sohada tashqi iqtisodiy faoliyatning rivojlanishi, ishlab chiqarish ko'lamining kengayishi hisobiga ishchi kuchini qo'shimcha ravishda sohaga jalb etish, ulardan foydalanish samaradorligining oshishi bilan ham bog'liq holda ish haqi darajasi o'sgan.

Sanoat tarmog'ini boshqa sohalar bilan taqqoslaganimizda, u yuqori daromadli xizmat ko'rsatish tarmoqlari bilan bir qatorda barqaror rivojlanish sur'atlarini namoyon etayotganini ko'rishimiz mumkin. Bu esa sohada tavakkalchilikni yanada kamaytirishga, kapital qo'yilmalarni qo'llab-quvvatlovchi tizimlarni takomillashtirishga, kredit resurslari ko'lamini kengaytirishga, ayniqsa, uzoq muddatli kreditlardan foydalanish imkoniyatlarini oshirishga e'tibor qaratishni taqozo etadi. Mazkur chora-tadbirlar natijasida sanoat salohiyati va uning samaradorligi yanada yuksalishiga erishiladi.

Shuningdek, Xorazm viloyatida ish haqini oshirish, uning sanoat tarmog'iga ta'sirini kengaytirish uchun innovatsion texnologiyalarni joriy etish va yuqori malakali kadrlar tayyorlash tizimini rivojlantirish lozim (1-jadval).

### 1-jadval

Xorazm viloyatida nominal hisoblangan o'rtacha oylik ish haqi, ming so'mda<sup>3</sup>

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	2020	2021	2022	2023	2024	2025
O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm	2186	2584	3185	3766	4265	5052
Sanoat	2668	3112	3716	4299	4485	5613
Qurilish	2485	2976	3062	3919	5224	5304
Savdo	2196	2339	2330	2833	3396	3916

2 Qobuljon Abdurahmonov. *Meʼnat iqtisodiyoti. Nazariya va amaliyot: darslik*. – Toshkent: «Fan», 2019. – 592 b. ISBN: 978-9943-19-494-6

3 Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



Tashish va saqlash	4218	4755	6481	7464	8946	9423
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	1276	1606	1814	2143	1857	2103
Axborot va aloqa	2409	2965	4041	7736	7827	8382
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	5447	7214	9092	10971	13151	14757
Ta'lim	1823	2142	2529	2965	3438	4136
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	1933	2214	2772	3272	3701	4215
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	1546	1962	2377	2690	3108	4535
Boshqa turlari	2276	2892	3628	4259	4973	6270

Yuqorida olib borgan tadqiqotlarimizda ish haqi darajasining nominal qiymatlari o'zgarishini baholadik. Bu ko'rsatkich joriy narxlarda bo'lgani uchun tarmoqlar doirasidagi o'zgarishlarga baho bergan bo'lsak-da, ular o'rtasidagi nomutanosiblik to'liq ochib berilmadi. Mazkur masalani ijobiy hal etish, tarmoqlarni o'zaro yillar kesimida taqqoslash va qiyosiy baholash uchun indeks usulidan foydalandik. Bunda 1,0 kattalik bazaviy qiymat sifatida viloyatdagi o'rtacha ish haqi tanlab olindi va unga nisbatan tarmoqlardagi holat aniqlandi.

Umumiy tahlil shuni ko'rsatmoqdaki, 2010–2025-yillar davomida tashish va saqlash hamda moliyaviy va sug'urta faoliyati 1,5–2,0 birlik atrofida bo'lib, ayrim yillarda 2,0 dan ham yuqori koeffitsiyentlar qayd etilgan. O'rtachaga yaqin holat qurilish va sanoat tarmoqlarida aniqlandi (2-jadval).

Umumiy holda sanoat tarmog'iga alohida to'xtalib o'tsak, nisbiy koeffitsiyent 2010-yilda 1,36 ga teng bo'lgan va keyingi yillarda pasayib borib, 2025-yilda 1,11 ni ifodalagan. Tadqiqot davri davomida o'rtacha ko'rsatkich esa 1,26 birlikni tashkil qilgan. Shunday bo'lsa-da, 2019-yildan pasayish tendensiyasi kuzatilib, 2024-yilda 1,05 gacha tushgan. Bu holat boshqa yuqori daromadli tarmoqlarda (ayniqsa, moliya va axborot sohaslarida) ish haqi o'sish sur'atlari sanoatga nisbatan tezlashganini ko'rsatmoqda.

Umumiy holda, Xorazm viloyatida sanoat tarmog'ida ish haqi darajasining boshqa tarmoqlarga nisbatan yuqori ko'lamini ta'minlash uchun texnologik modernizatsiya, mehnat unumdorligini oshirish va yuqori qo'shimcha qiymatli ishlab chiqarishni rivojlantirish zarur (2-jadval).

## 2-jadval

### Xorazm viloyatida hisoblangan o'rtacha oylik ish haqiga nisbatan tarmoqlar holati, birlik<sup>4</sup>

Iqtisodiy faoliyat turlari nomi	2020	2021	2022	2023	2024	2025	O'rtacha
O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi, ming so'm	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00
Sanoat	1,22	1,20	1,17	1,14	1,05	1,11	1,26
Qurilish	1,14	1,15	0,96	1,04	1,22	1,05	1,23
Savdo	1,00	0,91	0,73	0,75	0,80	0,77	0,97
Tashish va saqlash	1,93	1,84	2,03	1,98	2,10	1,87	1,81
Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar	0,58	0,62	0,57	0,57	0,44	0,42	0,63
Axborot va aloqa	1,10	1,15	1,27	2,05	1,83	1,66	1,27
Moliyaviy va sug'urta faoliyati	2,49	2,79	2,85	2,91	3,08	2,92	1,98
Ta'lim	0,83	0,83	0,79	0,79	0,81	0,82	0,89
Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar	0,88	0,86	0,87	0,87	0,87	0,83	0,89
San'at, ko'ngil ochish va dam olish	0,71	0,76	0,75	0,71	0,73	0,90	0,75
Boshqa turlari	1,04	1,12	1,14	1,13	1,17	1,24	0,96

Shu bilan birga, viloyatda sanoat salohiyatining mehnat qiymatini to'liq baholashda ish haqiga nisbatan yaratilgan sanoat mahsuloti hajmini ham tahlil qildik. Ushbu ko'rsatkich sanoatda mehnat unumdorligi, qo'shimcha qiymat yaratish darajasi va ish haqi dinamikasi o'rtasidagi o'zaro bog'liqlikni o'z ichiga oladi. Jumladan, 2010–2025-yillar davomida sanoat hajmi 628,6 mlrd so'mdan 34 276,1 mlrd so'mgacha oshib, 54,5 marta o'sgan. Ushbu davrda o'rtacha oylik ish haqi 322 ming so'mdan 5 052 ming so'mgacha o'sib, 15,7 baravarga oshgan. Mazkur ikki ko'rsatkichning o'sish sur'atlari o'rtasidagi farq natijasida sanoatning mehnat qiymati mezoni 1,95 mln so'mdan 6,78 mln so'mgacha ko'tarilgan, ya'ni 3,5 baravarga o'sgan (3-jadval). Bu holat sanoatda mehnat unumdorligi ish haqi o'sishidan tezroq oshganini ko'rsatmoqda. Ya'ni, har bir ishchiga to'g'ri kelgan mahsulot hajmi ish haqiga nisbatan yuqori bo'lib, bu tarmoq samaradorligining o'sib

4 Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

borayotganligini ifodalaydi.

Mazkur tahlilimizni yillar kesimida o'rganganimizda, notekis bo'lsa-da, umumiy holda o'sish mavjud. Jumladan, ushbu ko'rsatkichning 2010-yildagi qiymati 1,95 ga teng bo'lgan bo'lsa, 2025-yilga borib 6,78 ga yetgan. Lekin 2010–2013-yillarda mehnat qiymati mezonini 1,7–1,9 oralig'ida, 2014–2016-yillarda esa 2,4–2,7 oralig'ida tebrangan bo'lsa, 2017-yildan boshlab keskin o'sib, 2020-yilda 4,4 gacha, 2025-yilda esa 6,78 gacha o'sgan. Bu davrda sanoatni modernizatsiya qilish, yangi quvvatlarni ishga tushirish va investitsiyalarning ko'payishi asosiy omil sifatida qaraladi. Ayniqsa, viloyatda 2021-yildan boshlab xorijiy kapitalning yuqori sur'atlardagi o'sishi kuzatilgan.

Keltirilgan bog'liqlik koeffitsiyentlari shuni anglatadiki, sanoat mahsuloti hajmi bilan ish haqi o'rtasida juda kuchli musbat korrelyatsiya mavjud ekan. Bu jarayon ish haqining oshishi to'g'ridan to'g'ri ishlab chiqarish hajmining kengayishi bilan bog'liqligini anglatadi.

Xulosa qilib aytganda, sanoat tarmog'ida mehnat qiymati mezonining izchil o'sishi hududda sanoat salohiyati mustahkamlanayotganini, mehnat unumdorligi ortib borayotganini va ishlab chiqarish samaradorligining ijobiy o'zgarishini anglatadi. Shu bilan birga, kelgusida ushbu ijobiy tendensiyani saqlab qolish uchun yuqori texnologiyali ishlab chiqarishni rivojlantirish, innovatsiyalarni keng joriy etish va inson kapitali sifatini oshirish zarur.

Yuqoridagi tadqiqotlarimiz qatorida sanoat salohiyatining mehnat omilini miqdoriy, ya'ni ish bilan bandlik bo'yicha holatini ham tahlil qilamiz. Bunda Xorazm viloyatida ish bilan band aholiga to'g'ri keladigan sanoat mahsuloti hajmi o'zgarishini o'rganamiz. Jumladan, mazkur tahlil asosida hududda sanoat ishlab chiqarish samaradorligi va uning hududlararo tafovutlarini aniqlash imkoniga ega bo'lamiz. Ushbu ko'rsatkich mehnat samaradorligi bo'lib, sanoat salohiyati rivojlanishining muhim mezonini hisoblanadi (3-jadval).

3-jadval  
Xorazm viloyatida sanoat salohiyatining mehnat qiymati mezonini<sup>5</sup>

Yillar	Sanoat hajmi, mlrd. so'm	O'rtacha oylik nominal hisoblangan ish haqi hajmi, ming so'm	Sanoatning mehnat qiymati mezonini, mln. so'm
2010	628,6	322	1,95
2011	852,4	485	1,76
2012	1 014,2	565	1,80
2013	1 297,2	671	1,93
2014	1 920,8	801	2,40
2015	2 616,0	953	2,75
2016	2 802,7	1055	2,66
2017	4 070,4	1212	3,36
2018	6 457,2	1487	4,34
2019	8 538,6	1963	4,35
2020	9 615,9	2186	4,40
2021	13 658,1	2584	5,29
2022	18 323,3	3185	5,75
2023	21 589,1	3766	5,73
2024	28 438,8	4265	6,67
2025	34 276,1	5052	6,78
2010-yilga nisbatan 2025-yildagi o'zgarish	54,53	15,69	3,48
Sanoat mahsuloti bilan tegishli ko'rsatkichlar bog'liqligi	1,00	0,99	0,94

Umumiy holda viloyat darajasida ushbu ko'rsatkich 2010-yildagi 1,0 mln so'mdan 2025-yilda 43,8 mln so'mga yetib, 44 baravarga o'sgan (4-jadval). Bu sanoat ishlab chiqarish hajmining jadal sur'atlarda o'sgani

5 Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



va mehnat resurslaridan foydalanish samaradorligi sezilarli darajada oshganini ko'rsatadi. Ayniqsa, 2017-yildan keyingi davrda o'sish sur'atlarining tezlashishi hududda sanoatni modernizatsiya qilish va investitsiya faolligining kuchayishi bilan bog'liq (4-jadval).

#### 4-jadval

Xorazm viloyatida ish bilan bandlarga to'g'ri kelgan sanoat mahsuloti hajmi, mln.so'm<sup>6</sup>

Hududlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024	2025
Xorazm viloyati	13,4	18,8	24,7	27,8	36,5	43,8
Urganch sh.	22,5	25,5	38,4	40,6	48,6	61,4
Xiva sh.	4,5	4,7	5,7	8,8	11,6	14,1
Bog'ot	4,9	6,8	8,5	8,0	9,4	12,6
Gurlan	7,8	7,7	7,9	8,2	9,3	12,8
Qo'shko'pir	4,5	5,9	6,1	6,4	7,9	14,4
Urganch	4,6	10,8	12,3	11,8	15,5	21,6
Xazorasp	4,4	5,4	7,5	6,9	8,3	10,5
Tuproqqal'a	174,4	287,9	374,2	472,5	545,0	534,9
Xonqa	7,3	8,7	10,4	10,7	14,1	17,1
Xiva	5,1	4,9	5,2	6,3	6,8	13,4
Shovot	4,8	5,4	10,3	10,9	14,0	16,0
Yangiariq	6,3	6,5	10,4	13,2	16,3	19,1
Yangibozor	8,4	13,8	13,9	17,2	23,0	32,0

Yuqorida amalga oshirgan tadqiqotlarimizni eng yuqori qiymatga ega hududga nisbatan o'zgarishini tahlil qilamiz. Jumladan, Xorazm viloyatida sanoat salohiyatining mehnat mezoni hududlar kesimida soha ishlab chiqarishining mehnat resurslariga nisbatan taqsimlanishi va samaradorligini ifodalovchi muhim ko'rsatkich ekanligini ta'kidlab o'tdik. Shunga muvofiq, 2010–2025-yillar davomida amalga oshirgan tahlillarimizga ko'ra, hududlar o'rtasida sanoat salohiyatining mehnat mezoni bo'yicha o'ziga xos farqlanish shakllangan. Ya'ni, sanoat ishlab chiqarishi ayrim hududlarda yuqori darajada rivojlangan bo'lib, boshqa tumanlarda ham ushbu ko'rsatkichning bosqichma-bosqich o'sib borishi kuzatilmoqda.

Jumladan, Urganch shahrida 2010–2013-yillarda koeffitsiyent 1,0 darajasida saqlangan bo'lsa, keyingi yillarda pasayib, 2025-yilga kelib 0,11 ga teng bo'lgan. Bu holat hududlararo diversifikatsiya jarayoni amalga oshirilganligini ko'rsatadi.

Shuningdek, so'nggi yillarda yetakchilik Tuproqqal'a tumanida kuzatilib, 2020-yildan boshlab koeffitsiyent doimiy ravishda 1,0 ga teng bo'lgan. Bu ushbu hududda sanoat ishlab chiqarishining yuqori darajada konsentratsiyalashganini va u viloyatning asosiy sanoat "lokomotivi" ekanligini anglatadi.

Shu bilan birga, Hazorasp tumanida 2014–2019-yillarda yuqori ko'rsatkichlar kuzatilgan bo'lsa, 2020-yildan keyin keskin pasayish qayd etilgan. Bu holat sanoat ishlab chiqarishining muayyan yirik korxonalariga bog'liq bo'lganini va ushbu hududdagi bo'linishlar hisobiga yuz berganligini aytib o'tishimiz lozim.

Qolgan tumanlarda, jumladan, Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir, Xonqa tumanlarida koeffitsiyent 0,1–0,3 oralig'ida bo'lib, bu hududlarda sanoat salohiyatining rivojlanishi uchun qo'shimcha imkoniyatlar mavjudligini ko'rsatmoqda. Shuningdek, Xiva shahri va Xiva tumanida ko'rsatkichlar nisbatan past (0,01–0,04) bo'lib, ushbu hududlarda turizm va xizmat ko'rsatish sohasining yetakchi o'rin egallaganini bildiradi (5-jadval).

#### 5-jadval

Xorazm viloyatida sanoat salohiyatining mehnat mezoni (koeffitsiyentda)<sup>7</sup>

Hududlar nomi	2020	2021	2022	2023	2024	2025	O'rtacha
Urganch sh.	0,13	0,09	0,10	0,09	0,09	0,11	0,57
Xiva sh.	0,03	0,02	0,02	0,02	0,02	0,03	0,04
Bog'ot	0,03	0,02	0,02	0,02	0,02	0,02	0,12
Gurlan	0,05	0,03	0,02	0,02	0,02	0,02	0,10

6 Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.

7 Xorazm viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi.



Qo'shko'pir	0,03	0,02	0,02	0,01	0,01	0,03	0,08
Urganch	0,03	0,04	0,03	0,02	0,03	0,04	0,09
Xazorasp	0,03	0,02	0,02	0,01	0,02	0,02	0,44
Tuproqqal'a	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00	1,00
Xonqa	0,04	0,03	0,03	0,02	0,03	0,03	0,16
Xiva	0,03	0,02	0,01	0,01	0,01	0,02	0,06
Shovot	0,03	0,02	0,03	0,02	0,03	0,03	0,14
Yangiariq	0,04	0,02	0,03	0,03	0,03	0,04	0,11
Yangibozor	0,05	0,05	0,04	0,04	0,04	0,06	0,11

Hududlar kesimida amalga oshirgan tahlillarimiz ko'rsatishicha, yuqori holat Urganch shahri va Tuproqqal'a tumanida kuzatildi. O'rtacha yuqori o'sish sur'atlari esa Yangibozor, Urganch va Yangiariq tumanlariga to'g'ri kelgan. Shu bilan birga, Bog'ot, Gurlan, Qo'shko'pir tumanlarida ham ijobiy dinamika mavjud bo'lib, ulardagi ko'rsatkichlar nisbatan past darajaga ega.

Umumiy holda, Xorazm viloyatida ish bilan bandlarga to'g'ri kelgan sanoat mahsuloti hajmi o'sishi ijobiy tendensiyaga ega. Biroq, hududlar o'rtasidagi katta farqlar sanoat salohiyatini yanada muvozanatli rivojlantirish zarurligini ko'rsatmoqda. Bunda sanoat rivojlanishi past bo'lgan tumanlarda infratuzilmani yaxshilash, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini joriy etish va investitsiyalarni jalb qilish ustuvor vazifa hisoblanadi.

## XULOSA VA TAKLIFLAR

Xorazm viloyatida sanoat salohiyatining mehnat mezoni hududlar bo'yicha o'ziga xos tarzda shakllangan. So'nggi yillarda sanoat ishlab chiqarishining asosiy qismi alohida hududda — xususan, Tuproqqal'a tumanida jamlanib bormoqda. Bu esa hududda sanoat rivojlanishining yetakchi markazlari shakllanayotganligini ko'rsatmoqda. Shu sababli mavjud tajribani boshqa tumanlarga ham keng tatbiq etish, yangi ishlab chiqarish quvvatlarini hududlar kesimida rivojlantirish va mehnat resurslaridan samarali foydalanishni taklif qilamiz.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI:

Abdurahmonov, Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: nazariya va amaliyot: darslik. – Toshkent: O'zbekiston, 2019. – 544 b. ISBN: 978-9943-19-494-6.

Abdurahmonov, Q.X. Mehnat iqtisodiyoti: darslik. – Toshkent: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti, 2010. – 257 b.

Robert Solow. A Contribution to the Theory of Economic Growth. // The Quarterly Journal of Economics. – 1956. – Vol. 70(1). – P. 65–94.

Umarov O.O. Sanoat siyosatini rivojlantirishning yo'nalishlari // Central Asian Research Journal For Interdisciplinary Studies (CARJIS) ISSN (online): 2181-2454. Volume 3, Issue 16, August, 2023. 19-26-b.

Армишева Т.Г. Основы общей экологии: учеб. пособие. Пермь: Изд-во Перм. нац. исслед. политехн. ун-та, 2014. Ч.1. 200 с.

Shanazarova G.B. Sanoat korxonalarining innovation salohiyatini baholashning ayrim nazariy masalalari. // "Iqtisodiyot va innovation texnologiyalar" ilmiy elektron jurnali. № 4, iyul-avgust, 2017-yil. <http://www.iqtisodiyot.uz>.

# **muhandislik**

# **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,  
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

**Ingliz tili muharriri:** Feruz Hakimov

**Musahhih:** Zokir Alibekov

**Sahifalovchi va dizayner:** Abdurahmon Qurbonov

---

## 2026. № 6

---

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelmasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan  
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi  
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan  
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.  
**Litsenziya raqami: №095310.**

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod  
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



[t.me/yait\\_2100](https://t.me/yait_2100)